

MADANIYATSHUNOSLIKNING INSON FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI*Qalmurzaeva Azada Begali qizi**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filali talabasi**Qoraqalpog`iston, Nukus**Ilmiy rahbar: Nietullaev Rustam Asanovich**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filali o`qitutvchisi**Qoraqalpog`iston, Nukus*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Madaniyatshunoslik haqida tushincha, metodologik asoslari, moddiy va ma'naviy madaniyatlar haqida ma'lumot berilgan.

Annotation: This article provides information on the subject, methodological foundations, material and spiritual cultures of the subject Cultural Studies.

Kalit so'zlar: madaniyatshunoslik, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy tashkilot.

Keywords: Cultural Studies, Material Culture, spiritual culture, social attitude, social organization.

Madaniyatshunoslik - madaniyat rivojlanishining eng umumiyligini qonuniyatlarini o'rGANADI. Uning manbai insoniyat yaratgan barcha madaniy qadriyatlardir. Madaniyatshunoslikning asosiy vazifasiga insonning tabiat, jamiyat bilan birgalikdagi faoliyatini hamda har bir kishining ma'naviy turmushiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Uning tadqiqot manbai bo'lib: inson yaratgan san'at sohasi; kishilarining muomala vositasi bo'lgan til; jamiyat boyligi va mezoni bo'lmish bilim; ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tashkilotlar; jamiyatda sodir bo'luvchi demografik va etnik jarayonlar xizmat qiladi. Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, unga xos bo'lgan xususiyat - insonning madaniy hayoti hodisasini tartibli tizimga solib yondashish hisoblanadi. Shuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o'zida mujassam qilgan holda namoyon bo'lishi bilan birga bilishning o'ta murakkab ob'ekti hamdir. Madaniyat tarixida turli yo'nalishlar ilm fan, texnika, ta'lim, maishiy turmush, ijtimoiy qarashlar, adabiyot va hokazolarni kompleks tarzda o'rganishadi: madaniyat 2 ga bo'linadi:

1. Moddiy madaniyat; 2. Ma'naviy madaniyat;

Madaniyat bu jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir tarixiy bosqichdagi darajasidir. Har bir kishi hayoti va faoliyatini tashkil etish shaklida ifodalangan, insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar hamda insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy boyliklar faqat o'tmish kishilaridan qolgan boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayoti to'g'risidagi fikr va o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Aynan, sistemali yondashuv madaniyatga o'ziga xos

shaklda munosabat bildirgan holda kishilar hayot faoliyati sohalarini ham tushunish imkonini beradi. Bulardan madaniyat sohalari, madaniyat institutlari tashkil topib, ular aniq tuzilmaga va aniq vazifalarga ega bo'lган holda ijtimoiy munosabatlar tamoyili, kommunikatsiya, madaniy namunalarni tashkil qilib madaniyat tizimini belgilaydi. Madaniyatshunoslik fanining asosiy muammosi inson hisoblanadi, zero madaniyat – bu inson yaratgan narsalardir. Madaniyatshunoslik insonning olam bilan faol munosabatini va bu munosabatlar uning hayot tarzida namoyon bo'lshini, shaxsning ijtimoiy va madaniy rolini, madaniyatlar tipologiyasini o'rganadi. Madaniyatshunoslik fani madaniyatni ilmiy izohlab, uning umumtarixiy mazmuni va ma'nosini belgilaydi, ijtimoiy-tarixiy bilimlar tizimidagi o'rni va mavqeini asoslaydi. «Madaniyat» atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarda rang-barang ma'nolarda ifodalangan. «Madaniyat» va «Kultur» atamalari mutaxassislar fikriga ko'ra lotincha «ishlov berish», «parvarish qilish» ma'nosini anglatgan. Keyinchalik «ma'rifatli bo'lsh», «tarbiyalı», «bilimli bo'lsh» mazmunida ishlatilgan. O'zbek tilida keng ishlatiladigan «Madaniyat» atamasi arabcha «madaniy»-«shaharlik» degan ma'noni bildiradi. Madaniyat hodisasi tavsifida juda ko'p izohlar mavjud «insoniyatni yashash usuli; ijtimoiy insonning to'laqonli faoliyati», «inson tomonidan yaratilgan muhit», «yaxlit sotsial organizm», insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmui; sun' iy- ikkinchi tabiat; inson ijodiy faoliyati mahsuli; umuman jamiyat; jamiyatning ma'naviy holati; jamiyat sifati; shartli belgilar tizimi yig' indisi; me' yor va andozalar va hokazo.

Bugungi kun ilm-fanida madaniyat termini shakli, mazmun-mohiyati jixatidan turli xil bo'lган fikrlarni bildirishda amalda qo'llaniladi. Mashhur madaniyatshunos mutaxassislar I.Kant, O.Shpengler, Ye.Bogomolov, T.Oyzerman, V.Kelle, A.Kreber va Sharq ma'rifatparvarlari Munavvar Qori, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Zavqiy, Avloniy, Ayniy va boshqalar madaniyat hodisasini tushunishni turli xil yo'llarini taklif qilishgan. Madaniyat atamasiga berilgan rang-barang ta'riflarni mujassamlab, ularni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Madaniyat bu: insonlar tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar, qadriyatlar yig' indisi;

- sun' iy (ikkinchi) tabiat;
- inson faoliyatining yigindisi;
- ijodiy faoliyatning barcha turlari;
- ijodiy faoliyat hosilasi, uning natijalari va "meva" lari;
- jamiyat hodisasi;
- jamiyatning ma'naviy holati;
- jamiyatning sifat darajasi;
- insonning sifat darajasi va h.k.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, Madaniyatshunoslik kursi gumanitar fanlar qatorida oliy o'quv yurtlarida o'rganilishi hozirgi davr talabiga mos keladi. Jamiyat

hayotidagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy, siyosiy tadbirlar va huquq-tartibotni mustahkamlash bilangina to'la hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun jamiyatning ma'naviy hayotini ham qayta qurish talab etiladi. «Ma'naviyat yo'q joyda- degan edi Birinchi Prezident Karimov I.A- xech qachon baxt-saodat bo'lmaydi». Madaniyatshunoslik talabalarga jahon madaniyati va uning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston madaniyatini rivojlanish tarixi, xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi muammolari va istiqbollari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni berish bilan ayni paytda, milliy madaniyatga va o'zga millatlar madaniyatlariga, qadriyatlariga ularni hurmat ruhida tarbiyalashda, madaniyat yodgorliklariga ijodiy munosabatda bo'lishlarida, ma'naviy jihatdan rivojlanishlarida ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Mingnorov Madaniyatshunoslik, Istiqlol nuri 2015
2. A.Mavrulov Madaniyatshunoslik asoslari, Turon-Iqbol 2006